

*Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va
sirk san'ati oliy maktabi o'qituvchisi
E-mail: alievanazokat31@gmail.com
ORCID: 0009-0005-1797-1908*

DINARA YO'LDASHEVANING “GUGURT SOTUVCHI QIZ” SPEKTAKLINING REJISSYORLIK TAHLILI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Hans Kristian Andersenning “Gugurt sotuvchi qiz” ertagi asosida yaratilgan pyesa va Dinara Yo'ldasheva tomonidan sahnalashtirilgan qo'g'irchoq spektaklining rejissyorlik yechimi tahlil qilinadi. Tadqiqotda spektaklning poetik-falsafiy mazmuni, insoniy mehr, yolg'izlik, bolalar taqdiri, umid va orzu kabi g'oyalarning sahnaviy ifodasi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida spektakl Andersen asarining oddiy sahnaviy talqini emas, balki qo'g'irchoq teatrining poetik va ramziy imkoniyatlari asosida yaratilgan yuksak badiiy-falsafiy asar sifatida baholanadi.*

***Kalit so'zlar:** qo'g'irchoq teatri, rejissyorlik, spektakl, “Gugurt sotuvchi qiz”, Hans Kristian Andersen, Dinara Yo'ldasheva, Sergey Seduxin, sahna yechimi, ramziy obraz, yorug'lik dramaturgiyasi.*

РЕЖИССЁРСКИЙ АНАЛИЗ СПЕКТАКЛЯ ДИНАРЫ ЙЎЛДАШЕВОЙ «ДЕВОЧКА СО СПИЧКАМИ»

***Аннотация.** В статье анализируется режиссёрское решение спектакля кукольного театра, созданного по мотивам сказки Ганса Христиана Андерсена «Девочка со спичками» и поставленного Динарой Юлдашевой. Рассматриваются художественно-философское содержание спектакля, проблемы человеческой доброты, одиночества, детской судьбы, надежды и мечты, а также особенности их сценического воплощения. В результате спектакль рассматривается не как простая сценическая интерпретация произведения Андерсена, а как самостоятельное поэтико-философское художественное произведение, раскрывающее широкие выразительные возможности современного кукольного театра.*

Ключевые слова: кукольный театр, режиссура, спектакль, «Девочка со свечками», Ганс Христиан Андерсен, Динара Юлдашева, Сергей Седухин, сценография, символический образ, световая драматургия.

DIRECTORIAL ANALYSIS OF DINARA YO'LDASHEVA'S PRODUCTION "THE LITTLE MATCH GIRL"

Abstract. *This article analyzes the directorial interpretation of the puppet theatre performance based on Hans Christian Andersen's fairy tale "The Little Match Girl" and staged by Dinara Yuldasheva. The study examines the artistic and philosophical content of the performance, focusing on such themes as human compassion, loneliness, the fate of children, hope, and dreams, as well as their theatrical embodiment. The study concludes that the performance is not merely a stage adaptation of Andersen's fairy tale, but an independent poetic and philosophical work that demonstrates the expressive potential of contemporary puppet theatre.*

Keywords: *puppet theatre, directing, performance, "The Little Match Girl", Hans Christian Andersen, Dinara Yuldasheva, Sergey Sedukhin, scenography, symbolic imagery, lighting dramaturgy.*

Hans Kristian Andersenning "Gugurt sotuvchi qiz" ertagi asosida yaratilgan pyesa va spektakl qo'g'irchoq teatri repertuaridagi eng ta'sirchan, falsafiy va dramatik asarlardan biri hisoblanadi. Asarning tashqi syujeti juda sodda: qahraton qishda gugurt sotayotgan kambag'al qizaloq sovuq va ochlikdan aziyat chekadi. Biroq ushbu sodda voqea ortida insoniy mehr, jamiyatning loqaydligi, bolalar taqdiri va umid hamda orzu kuchi haqidagi chuqur falsafiy qatlam yashiringan.

Pyesa konfliktining markazida insonning moddiy olami bilan uning ruhiy dunyosi o'rtasidagi qarama-qarshilik turadi. Qizaloq yashayotgan muhit: sovuq, qashshoqlik, ochlik, mehrsizlik bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga uning ichki olami: orzu, muhabbat, iliqlik, umid bilan to'la. Dramaturg aynan shu ikki olam qarama-qarshiligi orqali tomoshabinga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadi [1].



Asarda tashqi harakat juda kam. Qizaloq deyarli bir joyda o'tiradi. Ammo ichki dramatik harakat nihoyatda kuchli. Har bir yoqilgan gugurt yangi dramatik bosqichni yaratadi. Shu sababli gugurtlar spektaklda oddiy predmet emas, balki dramaturgik kompozitsiyaning asosiy harakatlantiruvchi vositasiga aylanadi.

Qo'g'irchoq teatrida bu asarni sahnalashtirish katta mahorat talab qiladi. Chunki spektaklda tashqi voqea kam, hissiy holatlar esa juda ko'p. Rejissyorning asosiy vazifasi qizaloqning ichki kechinmalarini vizual obrazlarga aylantirishdan iborat bo'ladi. Andersen asarida qizaloqning eng yaqin insoni buvisi hisoblanadi. Ammo Dinara Yo'ldasheva spektaklda juda muhim dramaturgik o'zgarish kiritgan – finalda qizaloqni olib ketadigan mehr timsoli sifatida buvining emas, onaning ovozidan foydalanilgan [2]. Bu o'zgarish bir qarashda kichik detal bo'lib tuyuladi, aslida esa spektaklning butun emotsional markazini o'zgartiradi. Chunki buvi – xotira va o'tmish ramzi; ona esa – inson qalbidagi eng muqaddas va eng og'riqli tuyg'ular bilan bog'liq obraz. Tomoshabinlarning aksariyati bolalikdagi ona mehri bilan bog'liq hissiyotlarni ong ostida saqlaydi. Finalda aynan onaning ovozi yangrashni spektaklni yanada shaxsiy va ruhiy darajaga olib chiqadi. Rejissyor tomoshabinning aqliga emas, bevosita qalbiga murojaat qiladi.

Rassom Sergey Seduxinning sahna yechimi esa beqiyosdir. Mahoratli rassom Sergey Seduxin dekoratsiyani maksimal darajada poetik shartlilik

asosida qurgan. Sahnaning ikki tomonidagi qor bosgan uylar oddiy dekoratsiya emas. Ular insonlar yashayotgan issiq uylarni, qizaloq esa kira olmaydigan baxt dunyosini ramziy ifodalaydi. Pyesada ham qizaloq “Barcha derazalarda chiroqlar yonardi...” deb kuzatadi. Seduxin aynan shu motivni sahna makoniga ko‘chirgan. Tomoshabin chap tomonda iliq uy, o‘ng tomonda iliq uy, orasida esa sovuq va qorong‘ulikda qolgan qizaloqni ko‘radi. Bu juda kuchli kompozitsion qarama-qarshilikdir. Sahnaning markazidagi ko‘prik ham tasodifiy tanlanmagan [3].

Rejissyorlik talqinida ko‘prik – hayot va o‘lim, yer va osmon, azob va najot orasidagi ramziy chegara sifatida ishlaydi. Spektakl davomida qizaloq ko‘prik yonida qoladi, finalda esa ruhiy jihatdan undan o‘tib ketadi. Bu juda nozik, ammo kuchli sahnaviy metafora. Birinchi gugurt yoqilganda paydo bo‘ladigan pechka obrazi qizaloqning eng oddiy ehtiyojini ifodalaydi – ilqlilik. Rejissyor bu sahnani yorug‘lik dramaturgiyasi orqali kuchaytirishi mumkin. Sovuq ko‘k ranglardan iliq sariq va oltin ranglarga o‘tish tomoshabinda hissiy kontrast uyg‘otadi. Ikkinchi gugurt sahnasida qizaloq boylarning dasturxonini ko‘radi. Bu yerda dramaturgiya ochlik muammosini ochadi. Jonlanib qizaloq tomon yurayotgan g‘oz obrazi bolalar uchun ertaknamo va qiziqarli ko‘rinsa-da, aslida u yetib bo‘lmas orzuning ramzidir. Spektakldagi barcha obrazlar ramziy ma’noga ega: pechka – ilqlilik va xavfsizlik timsoli, qovurilgan g‘oz – to‘kinlik va farovonlik ramzi, yangi yil archasi – bolalik quvonchi va baxt timsoli, yulduz – inson ruhining boqiyliqi belgisi, ona – mehr-muhabbat va himoya timsoli [4].

Ayniqsa, ona obrazi spektaklning eng muhim ma’naviy markazidir. U qizaloq uchun nafaqat yaqin inson, balki mehr va muhabbat manbai hisoblanadi. Rejissyor ona obrazini yorug‘lik, musiqa va plastika orqali deyarli farishta darajaga ko‘taradi.

Mazkur asar qo‘g‘irchoq teatrining ramziy va poetik imkoniyatlarini namoyon etish uchun juda qulay material hisoblanadi. Qo‘g‘irchoq – qizaloqning nozik hissiyotlarini, gugurt alangasining mo‘jizaviy dunyosini, fantaziya va haqiqat chegarasini jonli aktyorga qaraganda ba’zan kuchliroq ifodalay oladi. Ayniqsa, soya

teatri, yorug'lik effektlari, proyeksiya, transformatsion dekoratsiya vositalari spektaklning poetik ta'sirini oshiradi.



Spektaklning mizansahna va sahna yechimi keladigan bo'lsak. Spektakl odatda ikki makonda kechadi:

1. Real olam – sovuq ko'cha.
2. Tasavvur olami – gugurt alangasida paydo bo'ladigan mo'jizalar [5].

Rejissyor ushbu ikki olamni qarama-qarshi ranglarda quradi. Sahna asosan – ko'k, binafsha, oq ranglar asosida yoritilgan. Bu ranglar sovuqni bildiradi. Ammo qizaloq gugurt yoqqan lahzalarda oltin, sariq, iliq oq ranglar paydo bo'ladi. Bu yorug'lik qarama-qarshiligi spektaklning bosh dramatik vositasiga aylangan. Aslida tomoshabin voqeani emas, ranglar orqali qizaloqning ichki holatini his qiladi. Bu ham qo'g'irchoq teatridagi juda muhim rejissyorlik topilma. Real dunyo – kulrang, qoramtir, sovuq. Tasavvur dunyosi – oltinrang, yorqin, iliq. Shu kontrast spektaklning hissiy ta'sirini kuchaytiradi. Musiqiy yechimi esa, asarning ruhiy atmosferasini yaratishda muhim o'rin tutadi. Spektakl boshida sovuq va sokin kuylar ustun bo'lsa, har bir gugurt bilan lirizm va romantizm kuchayadi. Ona paydo bo'lgan sahnada esa musiqa eng yuqori hissiy cho'qqiga ko'tariladi. Asarning eng murakkab jihatidir. Ushbu spektakl finalining falsafiy talqini tahsinga sazovor. Finalda aynan onaning ovozi yangrashni spektaklni yanada ta'sirli darajaga olib chiqadi.

Rejissyor tomoshabinning aqliga emas, bevosita qalbiga murojaat qiladi. Ona bilan birga osmonga ko'tarilish sahnasi o'lim emas, balki azoblardan qutulish va ruhiy ozodlik sifatida talqin qilinadi. Shu sababli spektakl tomoshabinda ikki xil tuyg'u uyg'otadi: achinish, umid [6].

Dinara Yo'ldashevaning "Gugurt sotuvchi qiz" spektakli oddiy Andersen ertagining sahnaviy talqini emas, balki inson qalbiga bevosita ta'sir qiladigan poetik-falsafiy spektakl darajasiga ko'tarilganini ko'rish mumkin. Aynan shuning uchun tomoshadan chiqqan ko'plab kattalarning ko'zlarida yosh bo'ladi. Bu spektakl tomoshabinni voqeaga emas, his-tuyg'uga sherik qiladi. "Gugurt sotuvchi qiz" pyesasi va uning qo'g'irchoq spektakli insoniy mehrning qadri, bolalar taqdiri va jamiyat mas'uliyati haqida chuqur falsafiy asardir. Rejissyorlik nuqtayi nazaridan spektaklning muvaffaqiyati real va xayoliy olamni uyg'unlashtirish, yorug'lik dramaturgiyasi, ramziy obrazlar tizimi hamda qizaloqning ichki kechinmalarini sahnaviy vositalar orqali ta'sirchan ifodalashga bog'liq. Andersen yaratgan ushbu asar bugungi kunda ham o'zining gumanistik ruhi va kuchli emotsional ta'siri bilan qo'g'irchoq teatri sahnasida dolzarb ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Dinara Yo'ldashevaning "Gugurt sotuvchi qiz" spektakli Andersen ertagining oddiy sahna talqini emas, balki qo'g'irchoq teatri vositalari orqali yaratilgan yuksak poetik-falsafiy asardir. Rejissyor buvini ona obraziga almashtirish orqali asarning emotsional kuchini yanada oshirgan. Rassom Sergey Seduxin yaratgan qor bosgan uylar, markaziy ko'prik, sovuq ranglar tizimi va poetik makon esa qizaloqning ichki dunyosini vizual shaklga aylantirgan. Nega kattalar yig'laydi? Bu spektakl bolalar uchun yozilgan bo'lsa ham, kattalarga kuchliroq ta'sir qiladi. Sabablari ko'p. Misol uchun, har bir inson bolalikdagi mehrni eslaydi. Har bir inson hayotida yo'qotgan insonlari haqida o'ylaydi. Spektakl tomoshabinga jamiyatdagi loqaydlikni eslatadi. Ona obrazi hissiy xotiralarni uyg'otadi. Shuning uchun tomoshabin yig'lab chiqadi, ammo tushkun holatda emas. U ichki tozalanish hissini boshdan kechiradi. Natijada spektakl bolalar uchun ertak, kattalar uchun esa mehr, yolg'izlik, yo'qotish va insoniylik haqida chuqur ruhiy

mushohadaga aylanadi. Aynan shu sababli bu spektaklni tomosha qilgan odamlar zalni sukut va ko'z yosh bilan tark etadilar. Bu esa rejissyor va ijodiy guruhning eng katta badiiy yutug'idir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Abduxalilov A. Qo'g'irchoq teatri rejissurasi. – Toshkent: ART Press, 2020. – 120 b.*
2. *Деммени Е. Призвание куколник. – Ленинград: Искусство, Ленинградское отделение, 1986. – 199 с.*
3. *Захава Б. Мастерство актёра и режиссёра. – Москва: Просвещение, 1978. – 334 с.*
4. *Umarov E. Teatrda badiiy obraz yaratishning estetik tamoyillari. – Toshkent: Fan, 2011. – 176 b.*
5. *Sayfullayev B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 160 b.*
6. *Сперанский Е. Актёр театра кукол. – Москва: ВТО, 1986. – 144 с.*
7. *Сайфутдинов А. Адабий асар ва изжочилик мактаби. – Тошкент: Фан, 1980. – 128 б.*
8. *Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006. – 160 b.*
9. *Королев М. Искусство театра кукол. – Ленинград: Искусство, Ленинградское отделение, 1973. – 240 с.*
10. *Кристи Г. Воспитание актёра школы Станиславского. – Москва: Издательство, 1978. – 352 с.*
11. *Калашников Й. Театральная этика Станиславского. – Москва: ВТО, 1978. – 160 с.*
12. *Ashurova M. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 176 b.*
13. *Muhamedov M. Rejissura asoslari. – Toshkent: O'zDSI, 2008. – 160 b.*
14. *Усмонов Р. Режиссура. – Тошкент: Фан, 1997. – 222 б.*